

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI RUHIY JIHATDAN RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Vaisova Gulnoza Kuzibayevna

*Urganch Davlat Universiteti pedagogika fakulteti maktabgacha ta'lim metodikasi
kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Inson rivojlanishi murakkab jarayon bo'lib, u tashqi ta'sirlar hamda ichki kuchlar ta'sirida sodir bo'ladi. Tashqi omillarga insonni o'rab turgan tabiiy va ijtimoiy muhit, shuningdek bolalarda muayyan xislatlarni shakllantirish bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan faoliyat kiradi. Ichki omillarga esa biologik, irsiy omillar kiradi. Rivojlanish jarayonida bola faoliyatning har xil turlariga jalb qilinadi. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni ruhiy jihatdan rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *rivojlanish, jarayon, ruhiy holat, omil, psixik taraqqiyot, ta'lim-tarbiya, qoida, bosqich, qonun, bola, tarbiyachi, talab, o'yin.*

Insonni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash xalqimizning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat, ma'naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish, ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalarini muttasil izlaganlar. Bular esa hamisha bolalar ta'lim-tarbiyasi oldidagi dolzarb yechimtalab muammolardan biridir. Bugun maktabgacha ta'lim oldida ham shu savollar ko'ndalang turibdi. Sababi uzluksiz ta'lim tizimining bosh bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'limda eng asosiy fundamental bilimlar shakllantirilishi lozim. Mamlakatimizda olib borilayotgan uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlaridagi yangilanish, modernizatsiya jarayoni uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari uchun, jumladan, barcha sohalar qatorida Maktabgacha ta'lim - tarbiyani tashkil etish bo'yicha ham zamon talabiga javob bera oladigan darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratishni taqozo etmoqda.

Bugungi kunda Respublikamizda "Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi" hamda maktabgacha ta'lim uchun o'quv dasturlari va o'quv-metodik majmualarda bolalarning bilish faoliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilgan. MTT tarbiyalanuvchilarining bilish faoliyatlarini rivojlantirish tarbiyachi pedagoglarning ta'lim-tarbiyani samarali tashkil etishlariga bevosita bog'liqdir.

Bolalar tarbiyasi va ta'lim olishlari, ularning qonuniy huquqlari va manfaatlari himoyasi borasida ota-onalarning o'rni va javobgarligi muhim hisoblanadi. Shunga muvofiq so'nggi yillarda «Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talablari» (2017-yil, 9-iyun, 5-mh son) maktabgacha ta'lim tayanch dasturi, «Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim», «Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya» kabi hujjatlarga asoslanish bola shaxsini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi.

«Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari» maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalarida har tomonlama rivojlantirish, ta'lim-tarbiya berish, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda maktab ta'limiga tayyorlash bo'yicha davlat talablarini belgilaydi. Davlat talablari:

- davlat maktabgacha ta'lim muassasalari;
- nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari;
- qisqa muddatli guruhlar;
- 7 yoshgacha bolalar mavjud bo'lgan mehribonlik uylari va bolalar shaharchalariga nisbatan tatbiq etiladi.

Davlat talablarining vazifalari:

- bolalarni maktabda o'qishga tayyorlash;
- bolalarning sog'lom va har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlash hamda unda o'qishga intilish hissini uyg'otish;
- bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun integral ta'limni tashkil etish;
- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiyani amalga oshirish;
- bolalarni xalqimizning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish;

– bolalarni maktabda o'qishga tayyorlashda ularning ota-onalari bilan o'zaro hamkorlik qilish hamda ota-onalarga amaliy jihatdan ko'maklashish;

– bolalarda ijtimoiy-kommunikativ, axloqiy, estetik, intellektual, jismoniy sifat va salohiyatlarni uyg'otish hamda rivojlantirish;

– bolalarni sog'lom turmush tarzi bilan tanishtirish;

– bolalarda mustaqillik, mas'uliyatlik, tashabbuskorlik xislatlarini shakllantirish;

– bolalarga dunyo haqida tushunchalar berish va tasavvurlarini kengaytirish;

– bolalarning yoshi, individual, psixologik va jismoniy xususiyatlari hamda qobiliyatini inobatga olgan holda ta'lim tarbiya jarayonini tashkil qilish.

Davlat talablari quyidagi sohalar bo'yicha belgilanadi:

– jismoniy rivojlantirish va madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni shakllantirish;

– ijtimoiy-kommunikativ rivojlantirish;

– nutq, savod, o'qish va chet tillarini o'rgatilishiga tayyorlash;

– bilish jarayonini rivojlantirish;

– badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish va badiiy estetik rivojlantirish.

Ijtimoiy-kommunikativ rivojlantirish sohasi quyidagi yo'nalishlarga bo'linadi:

– ijtimoiylashuv, muloqot va odob-axloq qoidalarini shakllantirish;

– bolaning oila va jamiyatda o'zini tutishi;

– bolada mehnat tarbiyasini shakllantirish;

– xavfsizlik asoslarini shakllantirish.

U maktabgacha ta'lim tizimining mohiyatini belgilaydi va maktabgacha ta'lim muassasalarini mulkchilik shaklidan qat'i nazar, barcha bolalarning tengligi va bolalir qadriyatini saqlagan holda har bir bolaning individual rivojlanishini ta'minlashga yonaltiradi.

Maktabgacha ta'lim bolaga ijtimoiy muhit tomonidan ta'sir ko'rsatadigan, malakali shaxslar tomonidan ta'lim-tarbiya faoliyatni samarali tashkil etadigan ilk bilim dargohi hisoblanadi. Har bir bola ruhiyati o'ziga xos bo'lgan murakkab konfiguratsiyaga ega, shu bilan unga ta'sir etuvchi omillar va ularning ta'siri ham juda xilma-xildir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning qiziqishlari va faolliklari ham aynan maktabgacha ta'lim tashkilotida mashg'ulot jarayonlarida o'z ifodasini topadi. Xuddi shuningdek hozirgi kunda tarbiyalanuvchi bolajonlar o'rtasida olib boriladigan asosiy mashg'ulotlar bolaning diqqati va xulq-atvor ko'nikmalariga ijobiy ta'sir etib bolada hayotga o'zgacha bir qiziqish paydo qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etilgan pedagogik jarayon bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilishi zarurligi va shartligi hammaga ayon. Pedagogik jarayonning asosiy ko'rinishlaridan biri bu, bola shaxsiga ehtiyotkorlik bilan pedagogik-psixologik yondashish kerak. To'la ma'noda tashkil etilmagan pedagogik jarayon o'sayotgan bolani miyasida bo'shliqlar paydo bo'lishiga olib keladi. Bola o'sgan sari uning miyasi, aqli to'ladi. Shuning uchun ota-onalar tarbiyachilar diqqatida bo'lishi kerak. Bolalarni yoshiga qarab rivojlantirishga qaratilgan ta'limiy o'yinlar harakatlarni rivojlantiruvchi va hatto bolalarning sog'ligini tiklovchi o'yinchoqlar bo'lishi kerak. Bolalar nutqini rivojlantirishda o'yinchoqlarning o'rni katta. Hozirgi vaqtda o'yin faoliyati to'liq amalga oshirilgandagina bola shaxsi rivojlanadi. O'yin faoliyati bevosita kattalar bilan birga amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti ishining mazmuni, tarbiyaning asosini tashkil etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning odob ahloqi va mehnatkash bo'lib tarbiyalanishi uchun ularga salomlashish va xayrlashishni bilish, o'zidan kattalarga sizlab murojaat qilishni qilishni o'rgatib borish zarur. Ularga «labbay», «xo'p bo'ladi», «xush kelibsiz», «rahmat», «salomat bo'ling», «mumkinmi», «kechirasiz», «marhamat» kabi so'z va iboralarni o'z o'rniga qo'yib ishlatishni ongiga singdirib borishimiz kerak.

Bolaning psixik taraqqiyoti juda murakkab jarayondir. Bolaning psixik taraqqiyoti qanday shakllanishidan qat'i nazar, u muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadi. Bu qonuniyatlarning o'ziga xos xususiyatlari hayot sharoitiga, faoliyatiga va tarbiyaga bog'liqdir.

Psixik taraqqiyot qonuniyatlariga:

- notekislik qonuni;
- psixika integratsiyasi qonuni;
- plastiklik va kompensatsiya qonuni kiradi.

1. Psixik rivojlanishning notekisligi shundan iboratki, har qanday sharoitda, hatto ta'lim tarbiyaning eng qulay sharoitlarida ham shaxsning turli psixik belgilari, psixik

funksiyalari va psixik xususiyatlari rivojlanishining bitta darajasida to'xtab turmaydi. Bolalarga bir xil tarbiya berilsa ham bolalar uni turlicha qabul qiladilar. Chunki, ularning o'ziga xos individual xususiyatlari

mavjud, nerv tizimining xususiyatlari, tiplari turlicha, yashash sharoiti, tarbiyaviy ta'sirlari turlicha bo'lgani uchun ham psixik taraqqiyot tezlashib yoki sekinlashib,

ba'zan to'xtab yoki tutilib qolishi mumkin. Shu sababli psixik taraqqiyot notekis rivojlanishi mumkin deb e'tirof etiladi.

2. Integratsiya qonuni inson psixikasini o'z taraqqiyoti davomida tobora ko'proq yaxlitlik, birlik, mustaqillik va doimiylik xususiyatlarini kasb eta borishidir. Bunda yoshlikda hosil bo'lgan psixik xususiyatlar taraqqiyot davomida bora-bora kishining asosiy xususiyatiga yoki xarakter xislatiga aylanadi va bu xislat shu kishining hayotida yaqqol ko'zga tashlanadigan bo'lib qoladi. Bu qonunga binoan psixik rivojlanish psixik holatlarning asta-sekin o'sib, shaxs xislatlariga aylanishidan iborat bo'lgan qonundir.

3. Plastiklik va kompensatsiya imkoniyati qonuni. Bu qonun asab tizimining plastiklik xususiyati bilan bog'liqdir. Yosh bola ijtimoiy munosabatlarga kirishar ekan u albatta ularni o'ziga o'zlashtiradi, taqlid qiladi. Natijada u aqliy tomondan shakllanadi. Ta'lim-tarbiya sharoitida bolani, maktab o'quvchisining psixikasini maqsadga muvofiq o'zlashtirishning boy imkoniyati asab tizimining ana shu plastikligiga asoslanadi. Plastiklik kompensatsiya (to'ldiruvchanlik, tovon, badal) uchun ham yo'l ochib beradi. Ba'zi psixik funktsiyaning rivojlanishi zaif yoki

nuqsonli bo'lsa, uning faoliyatini zo'r uyushganligi va aniqligi bilan kompensatsiya qilish mumkin; ko'rishdagi nuqsonlar qisman, eshitish analizatorining o'tkir darajada rivojlanishi bilan kompensatsiya qilinadi. Tarbiyachi va o'qituvchilar bolaga ta'lim-tarbiya berish jarayonida psixik taraqqiyotning qonunlariga amal qilishlari va bolaning taraqqiyot xususiyatlarini bilishlari maqsadga muvofiqdir. Bolaning psixik taraqqiyotida ta'lim va tarbiya juda katta ahamiyatga ega. Uzoq muddat davomida beriladigan ta'lim-tarbiya

ishlari hozirgi vaqtda oiladagi tarbiya ishlari bilan birga qo'shib olib borilmoqda. Boshqacha qilib aytganda, bolaga juda yoshlik chog'idan boshlab qat'iy dastur asosida ta'lim-tarbiya berila boshlanadi.

Bola maktabgacha ta'lim muassasasida, maktabda izchil suratda ta'lim va tarbiya oladi. Bunday uzoq muddatdagi maxsus ijtimoiy ta'lim va tarbiya bolaning psixik taraqqiyotiga ta'sir etmay qolmaydi. Shuning uchun bolaning umumiy psixik taraqqiyoti ko'p jihatdan ta'lim-tarbiyaning ta'siriga bog'liqdir.

Psixolog L.S. Vigotskiyning fikriga ko'ra, ta'lim-tarbiya jarayoni psixik taraqqiyot jarayoniga mos kelmaydi. Bola ijtimoiy tajribani ta'lim-tarbiya jarayonida o'zlashtirib, rivojlanadi. Demak, ta'lim-tarbiya jarayoni har doim psixik taraqqiyotdan bir qadam oldinda boradi. Ta'lim-tarbiya jarayoni bolaning

psixik taraqqiyoti uchun sharoit yaratib, zamin hozirlaydi va psixik taraqqiyotni o'z ketidan ergashtirib boradi.

L.S. Vigotskiy psixik taraqqiyotning 2 bosqichini belgilab berdi:

– eng yaqin taraqqiyot bosqichi;

– aktual taraqqiyot bosqichi.

Uning tushuntirishiga ko'ra psixik taraqqiyotning yaqin sohasida bolaning psixik taraqqiyoti katta odamlarning (ota-onalar, tarbiyachilar va o'qituvchilarning) bevosita yordami, rahbarligi asosida amalga oshiriladi. Bolaning go'daklik, ilk yosh, maktabgacha ta'lim muassasasi va kichik maktab yoshidagi davrlari psixik taraqqiyotning yaqin bosqichiga to'g'ri keladi.

Psixik taraqqiyotning aktual bosqichiga kelsak, bu bosqich muayyan davrda bolaning katta yoshdagi kishilar yordamisiz mustaqil harakat qila olishi bilan ifodalanadi. Psixik taraqqiyotning aktual bosqichi o'zlashtirilgan bilimlar, ko'nikma va malakalardan mustaqil foydalanish bosqichidir.

Psixik taraqqiyotning aktual bosqichiga bolaning o'smirlik va o'spirinlik davrlari to'g'ri keladi. Bu davrda bolalarning ta'lim jarayoniga bo'lgan munosabatlari tubdan o'zgarib, ular turli narsalarga nisbatan tanlab munosabatda bo'la boshlaydilar. O'smir bolalarda qiziqish va dunyoqarash kabi shaxsning murakkab sifatleri tarkib topa boshlashi tufayli turli sohalarga doir bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga urinish yuzaga keladi. Vaholanki, ta'lim-tarbiya psixik taraqqiyotdan bir qadam oldinda borib, psixik taraqqiyotga zamin hozirlar ekan, to'g'ri yo'lga qo'yilgan ta'lim- tarbiya jarayoni hamma vaqt o'quvchilarni mustaqil tafakkur qilishga, tabiat hamda jamiyatdagi narsa va hodisalarga doir qonuniyatlarni bilib olishga yordam beradi. Ana shu bosqich nuqtayi nazaridan ta'lim-tarbiya ishlari davomida bolaning hozirgi vaqtda qanday bilim, ko'nikma, malakalar va xarakter sifatlariga ega ekanligini va yaqin kelajakda qanday bilim, ko'nikma, malakalar va shaxsiy sifatlariga ega bo'la olishini hisobga olish juda muhimdir. Ta'lim-tarbiya jarayonida taraqqiyotning shu ikki bosqichini taqqoslab, bolaning shu paytdagi rivojlanish darajasi va kelajakdagi rivojlanish imkoniyatlari haqida fikr yuritish mumkin bo'ladi. Tarbiyachi ta'lim-tarbiya jarayonida bolaning hozirgi taraqqiyot bosqichini hisobga olib, kelajakda qanday taraqqiyot darajasiga erishishini tasavvur eta olishi hamda bolani ana shu mo'ljallangan taraqqiyot darajasiga erishtirish uchun aniq rejalarga ega bo'lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. F.Qodirova va boshq. Maktabgacha pedagogika. T., 2019-yil
2. P.I.Ivanov, M.E.Zufarova. Umumiy psixologiya. Toshkent 2008
3. M. Vohidov. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent. «O'qituvchi» – 1882.
4. Bolalar iqtidorini erta aniqlashning psixologik-pedagogik metodikalari Majmuasi. T., 2010.
5. A.V. Petrovskiy va boshqalar. Umumiy psixologiya. – T.: «O'qituvchi». – 1992.
6. P.I. Ivanov. Umumiy psixologiya. – Toshkent. – 2007.

7. E. G'oziyev. Psixologiya. Darslik. «O'qituvchi» nashriyot matbaa ijodiy uyi. – Toshkent. – 2008.